



ERK KUYCHISI

Eshmamatov Quvonchbek Baxtiyor o'g'li

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universitetining 2 bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu she'rimda Abdulla Qodiriyning millat oldidagi xizmatlari, uning istiqlol va erkinlik haqidagi orzulari hamda adabiy merosining boqiyliги aks etadi. Men Qodiriyning nafaqat o'z davrining buyuk jadidi, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun ham ibrat timsoli sifatida tasvirladim.

Kalit so'zlar: Metafora, epitet, tazod (antiteza), phersonifikatsiya

She'rimda Qodiriyning fidoyiligi, uning millat uchun cheksiz mehnati va adabiyot orqali xalqni uyg'otish yo'lidagi harakatlari badiiy ifoda etilgan. Adib ekan g'oyalar bugungi avlod uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatishga harakat qildim.

Ushbu she'r orqali Qodiriy nomi va uning merosi millat xotirasida mangu saqlanishi, adabiyot va istiqlol yo'lida qilgan jasorati esa doimo e'zozlanishi kerakligi g'oyasini ilgari surdim.

Qodiriy Bobom

Kaqli bayroq qilib tutgan

Qalbi zamon bo'lganda ham

Kurriyatni intiq tutgan

Ishtonch, sabot bitganda ham

Pok Niyati dilda hammon

Erk kuychisi Qodiriy bobom



Men Qodiriyni adolat va haqiqat yo‘lini tanlagan, istiqlol uchun kurashgan va o‘z hayotini millat kelajagiga bag‘ishlagan buyuk shaxs sifatida tasvirlashga harakat qildim.

She’rning mazmuni va asosiy g‘oyasi. She’rim Qodiriyning ozodlik uchun olib borgan kurashi, uning jasorati va mustaqillikka bo‘lgan ishonchiga bag‘ishlangan. Uning hayoti va ijodi xalqni uyg‘otish, milliy o‘zlikni anglatish va mustaqillik sari yo‘naltirishga xizmat qilgan.

She’rda quyidagi asosiy fikrlar ilgari surilgan: Adolat va haqiqat yo‘lidan og‘ishmaslik.

“Haqni bayroq qilib tutgan” misrasi orqali Qodiriyning haqiqatparvarligi va millat oldidagi fidoyiligi aks ettirilgan. U o‘z qarashlaridan qaytmagan, qanchalik qaltis davr bo‘lishiga qaramay, haqiqatni aytishdan cho‘chimagan.

Erkinlik uchun sobit turish. “Hurriyatni intiq kutgan” satri orqali Qodiriyning ozodlik va mustaqillik haqidagi orzulari tasvirlangan. Uning asarlari orqali xalq ongiga erkinlik g‘oyalarini singdirishga harakat qilgani ifoda etilgan.

Qodiriyning sobitqadamligi va e’tiqodi. “Ishonch, sabot bitganda ham” – ya’ni, u qanchalik qiyinchiliklarga duch kelmasin, o‘z e’tiqodi va maqsadlaridan chekinmagan.

“Pok niyati dilda hamon” – u millat ravnaqi uchun hech qachon ikkiyuzlamachilik qilmagan, sof niyat bilan xizmat qilgan.

Adibning abadiy merosi. “Erk kuychisi Qodiriy bobom” – bu misra orqali uning xalq orasida doim hurmat bilan tilga olinishi va merosining hamon yashab kelayotgani ifodalangan.

Badiiy vositalar tahlili. She’rimda fikrni kuchaytirish va ta’sirchanlikni oshirish uchun bir nechta badiiy vositalardan foydalandim:

Metafora: “Haqni bayroq qilib tutgan” – haqiqatga sodiqlik bayroq ko‘tarishdek sharaflilik ekanini ifodalash.



“Erk kuychisi” – Qodiriyning ozodlik g‘oyalarini tarannum etgan adib sifatida tasvirlash.

Tazod (antiteza): “Qaltis zamon bo‘lganda ham”– murakkab davrlar va qiyinchiliklarga qaramay, Qodiriy haqiqatdan voz kechmaganini ifodalash.

Epitet: “Pok niyati” – adibning sof yurakdan qilgan ishlari, uning orzu-umidlari sadoqat bilan yo‘g‘rilganini anglatadi.

O‘tkan kuni bugun bilan

Bog‘lay bildi kezib zamon

Xayrli deb topib shu on

Ish ko‘rmoqni moziy tomon

Otabekning siylarida

Ey olav qalbli jadid bobom

She’rimda Qodiriyning tarixni anglagan holda kelajak uchun harakat qilganligini ko‘rsatishga harakat qildim. U o‘tgan kunlar saboqlarini bugungi kunga bog‘lab, millatni uyg‘otish, taraqqiy ettirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

She’rning misra-misra tahlili. “O‘tkan kuni bugun bilan” Qodiriy millat tarixini chuqur tushungan va uni zamonaviy taraqqiyot bilan bog‘lashga harakat qilgan.

“Bog‘lay bildi kezib zamon”

Bu misrada uning vaqtni his qilish qobiliyati, o‘tmishdan saboq chiqarib, kelajak uchun foydali xulosa qilishi aks etgan.

“Xayrli deb topib shu on” U har bir imkoniyatdan unumli foydalangan, o‘z zamonining muhim masalalarini ilgari surgan.

“Ish ko‘rmoqni moziy tomon” Bu misrada Qodiriyning o‘tmishga faqat tarix sifatida emas, balki kelajak uchun saboq sifatida qarashi ifodalangan.



“Otabekning siyratida” Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida yaratgan Otabek obrazi orqali o‘z idealini ko‘rsatgan. Otabek – eski an‘analarga sodiq, lekin taraqqiyotga ochiq shaxs.

“Ey olov qalbli jadid bobom” Bu satr bilan men Qodiriyning millatga fidoyi inson sifatida madh etdim. Uning qalbi ishtiyoqli, millati uchun kuygan, jon fido qilgan inson edi.

She’riy san’atlar

Metafora:

“O‘tkan kuni bugun bilan bog‘lay bildi” – tarix va zamonni bog‘lash g‘oyasi.

“Ey olov qalbli jadid bobom” – Qodiriyning yuragi olovga o‘xshatilgan, ya’ni u ishtiyoqli, g‘ayratli inson edi.

Epitet:

“Olov qalbli” – Qodiriyning jasoratli va fidoyi shaxs ekanligini ifodalaydi.

Personifikatsiya:

“O‘tkan kun bugun bilan bog‘landi” – tarix go‘yo tirik narsa kabi bugunga bog‘lanmoqda.

Tazod (antiteza):

“Moziy tomon ish ko‘rmoq” – ya’ni, o‘tmishga qarab, lekin kelajak uchun foyda keltirish.

She’rning badiiy ta’siri

Bu she’rim orqali men Qodiriyning o‘tgan kun va bugungi zamonni bog‘lagan jadid yetakchisi sifatida tasvirladim. Uning xalq uchun jon fido qilgan fidoyiligi, millatni uyg‘otish yo‘lidagi harakatlari, adabiy merosi haligacha dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqchi bo‘ldim.

Ishtiqlolim havasidan dimog‘lari chog‘

Tilda Shukur, qallda orzu g‘oyasi toq‘

Shariat bizda bosib o‘tgan har yo‘lingiz



Ekkan o'sha niholingiz bo'li bir bog'

Qarlari qo'limizda tushmas hamon

Mangu doim yodimizda . Abdulla bobom

She'r tahlili

She'r mazmuni va asosiy g'oya

Men bu she'r orqali Qodiriyning istiqlolga bo'lgan havasini, uning millat uchun qoldirgan ibratli yo'lini va asarlarining mangu yashashini ifodalashga harakat qildim.

She'r ikki asosiy g'oyani o'zida mujassam etgan:

1. Qodiriy va milliy istiqlol – U mustaqillikni orzu qilgan, millatning ozodligi yo'lida kurashgan.

2. Adabiy merosning boqiyliqi – Uning asarlari hali ham qo'llarda, fikrlarda va qalblarda yashab kelmoqda.

She'ning misra-misra tahlili

Birinchi misra:

“Istiqlolim havasidan dimoqlari cho'g'”

Bu satrda milliy mustaqillikning qadriyat sifatida millat qalbida yongan olov kabi issiq his etilishi tasvirlangan. “Dimoqlari cho'g'” ifodasi istiqlol uchun kurashgan fidoyilarning ishtiyoq va jonbozligini anglatadi.

Ikkinchi misra:

“Tilda shukur, qalbda orzu g'oyasi tog'”

Bu yerda millatning ikki xil kechinmasi tasvirlanadi: tilida shukrona, ammo yuragida hali ham orzular bor. Mustaqillikka erishish yo'lidagi orzular tog'dek ulug', sobit va mustahkam.

Uchinchi misra:

“Ibrat bizda bosib o'tgan har yo'lingiz»



Bu misrada Qodiriyning ibratli hayoti madh etilgan. U bosib o'tgan yo'l bugungi avlod uchun saboq va namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

To'rtinchi misra:

“Ekkan o'sha niholingiz bo'ldi bir bog'”

Bu satrda Qodiriyning mehnati va ijodi timsollar orqali ifodalangan. U ekkan nihollar (ya'ni, adabiy va ma'naviy qadriyatlar) bugungi kunda bir bog'ga aylangan, ya'ni uning g'oyalari butun millatga yoyilgan.

Beshinchi misra:

“Asarlari qo'limizda tushmas hamon”

Bu yerda Qodiriyning ijodiy merosi hamon tirik ekani, uning asarlari hali ham millat tomonidan o'qilib kelayotganini anglatadi.

Oltinchi misra:

“Mangu doim yodimizda. Abdulla bobom”

She'ring yakuniy satri Qodiriy nomining hech qachon unutilmasligini, u millat xotirasida mangu yashashini ta'kidlaydi.

She'riy san'atlar

Metafora:

“Istiqlolim havasidan dimog'lari cho'g'” – istiqloлга intilishning yongan olovga o'xshatilishi.

“Ekkan o'sha niholingiz bo'ldi bir bog'” – Qodiriyning g'oyalari rivoj topib, keng avlodlar ongiga singganini bog'ga qiyoslash.

Epitet:

“Oltin meros” – Qodiriyning asarlarini qadrlash ifodasi.

“Mangu yod” – uning nomining boqiy ekanligini ko'rsatish.

Tazod (antiteza):

“Tilda shukur, qalbda orzu” – tashqi va ichki kechinmalarni taqqoslash.



Personifikatsiya:

“Ekkan niholingiz bo‘ldi bir bog‘” – uning ijodi jonlantirilib tasvirlangan.

She’rning badiiy ta’siri

She’rimda millat uchun kurashgan fidoyilarni madh etish, istiqlolni qadrlash, Qodiriyning adabiy merosini e’tirof etish asosiy ohang sifatida berilgan. She’r ohangdor va kuchli badiiy ta’sirga ega bo‘lishiga harakat qildim.

Abdulla Qodiriy – mangu yashaydigan buyuk siymo.

Umumiy xulosa

Yozgan uchta she’rimda Abdulla Qodiriyning millat oldidagi xizmatlari, uning istiqlol va erkinlik haqidagi orzulari, adabiy merosining boqiyiligi madh etilgan.

She’rlarimning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, Qodiriy nafaqat o‘z davrining yetakchi jadidi, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun ham ma’naviy yo‘lboshchi. Uning asarlari millatni uyg‘otish, istiqlol g‘oyalarini shakllantirish yo‘lida muhim o‘rin tutadi.

She’rlarimda quyidagi asosiy jihatlarni ko‘rsatishga harakat qildim:

Qodiriyning fidoyiligi – u o‘z hayotini millatning erkinligi yo‘lida qurbon qildi.

Adabiy merosining ahamiyati – uning asarlari bugungi kunda ham ibrat va saboq bolib xizmat qilmoqda.

Millatning unga bo‘lgan hurmati – xalq uning qoldirgan ma’naviy boyligini asrab-avaylab kelmoqda.

Qodiriy ekkan g‘oyalar bugungi avlod uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. U yaratgan Otabek obrazi orqali biz vatanparvarlik, halollik va istiqlol yo‘lida fidoyilik saboqlarini olamiz.

Men bu she’rlarim orqali Qodiriy siymosi hamisha millat xotirasida abadiy saqlanishini, u nafaqat adib, balki millat fidoyisi ekanini ta’kidlashga harakat qildim.

Qodiriy nomi mangu yashaydi! Uning yo‘li biz uchun ibrat!



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar. Toshkent 2008
2. <https://arboblar.uz/uz/people/kadyri-abdulla>
3. Norboyeva Zarina, Abdulla Qodiriy ijodining yoshlar hayotida tutgan o'rni. Vol. 6 No. 3 (2023): PEDAGOG